



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	



XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISH, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Axmetova Nasiba Axmetovna

ORCID: 0009-0007-1874-594X

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi fakulteti 3-bosqich talabasi

nasibaaxmetova625@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Mavlanov Normo'min Normamatovich

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada nomoddiy aktivlarning xalqaro va milliy standartlarda hisobga olinishi, baholanishi, hisobotda aks ettirilishi va ularning uslublari amaliy jihatdan yoritilgan. Xususan, intellektual mulk, dasturiy ta'minot, brend va goodwill kabi aktivlarning qiymatini aniqlash, ularning rentabelligini baholash va moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan sharoitda korxonalar faoliyatini samarali boshqarish va axborotlarning ishonchli ekanligini aniqlashda buxgalteriya tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nomoddiy aktiv va intellektual mulklarning ortib borishi natijasida uni to'g'ri hisobga olish va baholash masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli muhitda nomoddiy aktivlarni aniqlash, ularni baholash mezonlarini belgilash va hisobga olishda qator muammolar yuzaga kelmoqda, jumladan, ularning aniq qiymatini belgilash murakkabligi hamda mavjud hisob standartlarining yetarli darajada moslashmaganligi kuzatiladi. Raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida korxonalarda dasturiy ta'minot, patentlar, savdo belgilari va raqamli mahsulotlar kabi nomoddiy aktivlarning ahamiyati keskin ortib, ular kompaniya qiymatini shakllantirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, nomoddiy aktivlarni aniqlash, ularning qiymatini belgilash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayoni moddiy aktivlarga nisbatan ancha murakkabligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Nomoddiy aktivlar, intellektual mulk, IAS 38, BHMS 7, xalqaro buxgalteriya standartlari, milliy buxgalteriya standartlari, baholash usullari, amortizatsiya, qadrsizlanish.

Abstract: This article discusses the practical aspects of accounting, valuation, reporting and methods of intangible assets in international and national standards. In particular, the issues of determining the value of assets such as intellectual property, software, brand and goodwill, assessing their profitability and ensuring their correct reflection in financial statements are considered and analyzed. In the context of the developing digital economy, the accounting system plays an important role in effectively managing the activities of enterprises and determining the reliability of information. In particular, as a result of the increase in intangible assets and intellectual property, the issues of their correct accounting and valuation are of urgent importance. At the same time, a number of problems arise in identifying intangible assets in the digital environment, determining the criteria for their valuation and accounting, including the complexity of determining their exact value and the insufficient adaptation of existing accounting standards. In the process of gradual transition to a digital economy, the importance of intangible assets such as software, patents, trademarks and digital products in enterprises has increased sharply, becoming one of the main factors in the formation of company value. At the same time, the process of identifying intangible assets, determining their value and reflecting them in financial statements is much more complex than that of tangible assets.

Key words: Intangible assets, intellectual property, IAS 38, BHMS 7, international accounting standards, national accounting standards, valuation methods, depreciation, impairment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические аспекты учета, оценки, отчетности и методов учета нематериальных активов в международных и национальных стандартах. В частности, рассматриваются и анализируются вопросы определения стоимости таких активов, как интеллектуальная собственность, программное обеспечение, бренд и деловая репутация, оценки их рентабельности и обеспечения их корректного отражения в финансовой отчетности. В контексте развивающейся цифровой экономики система бухгалтерского



учета играет важную роль в эффективном управлении деятельностью предприятий и определении достоверности информации. В частности, в результате роста нематериальных активов и интеллектуальной собственности вопросы их корректного учета и оценки приобретают актуальное значение. В то же время возникает ряд проблем в идентификации нематериальных активов в цифровой среде, определении критериев их оценки и учета, включая сложность определения их точной стоимости и недостаточную адаптацию существующих стандартов бухгалтерского учета. В процессе постепенного перехода к цифровой экономике резко возросла важность нематериальных активов, таких как программное обеспечение, патенты, товарные знаки и цифровые продукты, для предприятий, став одним из главных факторов формирования стоимости компании. В то же время процесс идентификации нематериальных активов, определения их стоимости и отражения в финансовой отчетности гораздо сложнее, чем процесс идентификации материальных активов.

Ключевые слова: Нематериальные активы, интеллектуальная собственность, МСФО 38, BHMS 7, международные стандарты бухгалтерского учета, национальные стандарты бухгалтерского учета, методы оценки, амортизация, обесценение.

KIRISH

Maqola intellektual mulklarni ya'ni nomoddiy aktivlarni hisobga olish masalalari xalqaro va milliy buxgalteriya standartlari bo'yicha o'rganib, ularning raqamli buxgalteriya sharoitida qo'llanilayotgan usullar, metodlar va yondashuvlari tahlil qilinadi.

Xalqaro va milliy moliyaviy hisobotlarda nomoddiy aktivlar hisobga olinishi va baholanishi turli xil bo'lib, ushbu maqola har ikki standartlarning yondashuvlarini tahlil qiladi. Xususan, xalqaro buxgalteriyada nomoddiy aktivlar IAS 38 standarti asosida hisobga olinadi. Unga ko'ra, aktiv faqat kelajakda iqtisodiy foyda keltirishi kutilsa va uning qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa tan olinadi. Dastlab ular sotib olish qiymati bo'yicha e'tirof etiladi. Keyinchalik baholash cost model yoki revaluation model asosida amalga oshiriladi. Foydali muddati cheklangan aktivlar amortizatsiya qilinadi, cheklanmaganlari esa amortizatsiya qilinmaydi, lekin qadrsizlanishga tekshiriladi. Tadqiqot xarajatlari darhol xarajatga yoziladi, rivojlantirish xarajatlari esa ma'lum shartlarda aktiv sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi BHMS 7 (11-bandlariga muvofiq), barcha turdagi nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymat bo'yicha buxgalteriya hisobiga qabul qilinadi. Haq evaziga sotib olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga xarid narxi, bojxona to'lovlari, ro'yxatdan o'tkazish yig'implari, soliq va boshqa bevosita xarajatlar kiradi. Korxona tomonidan yaratilgan aktivlar esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari summasi sifatida aniqlanadi. Chet el valyutasida xarid qilingan, ustav kapitaliga hissa, tekinga olingan yoki ayirboshlash yo'li bilan olingan nomoddiy aktivlar esa tegishli qiymatlarni hisobga olgan holda boshlang'ich qiymatga qabul qilinadi.

Ushbu tadqiqot xalqaro miqyosda yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro standartlar asosida protsedura va siyosat mexanizmlarini yoritishga xizmat qiladi. Maqola avvalo nomoddiy aktivlar va raqamli buxgalteriya bo'yicha nazariy adabiyotlar tahlilidan boshlanadi hamda qo'llanilgan tahliliy yondashuvlar bayon etiladi. Keyinchalik hisobga olish jarayonlari batafsil ko'rib chiqilib, yakunda asosiy natijalar, amaliy tavsiyalar va kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy tadqiqotchilardan M. O'. Chorshanbayeva xalqaro va mahalliy tadqiqotlar sun'iy intellekt tizimlari hamda dasturiy ta'minotlarni zamonaviy korxonalar faoliyatida muhim nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etgan. OECD, IFRS va boshqa ilmiy manbalarda ularni baholashda daromad, xarajat va bozor yondashuvlari asosiy metodlar sifatida ko'rsatilganligi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, AI va dasturiy mahsulotlar korxonalarning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda innovatsion salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi. O'zbekiston amaliyotida esa IT-kompaniyalar, banklar va davlat raqamli platformalari orqali sun'iy intellekt aktivlarini buxgalteriya hisobiga kiritish jarayoni rivojlanib bormoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida nomoddiy aktivlarni hisobga olishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

M. O'. Abdusalomovning xalqaro moliyaviy hisobotlari tadqiqotida ilmiy manbalar va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) tijorat banklarida moliyaviy shaffoflik, barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Basel qo'mitasi, IFRS hamda yetakchi iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida bank aktivlari va majburiyatlarini xalqaro mezonlar asosida baholash, risklarni boshqarish, kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Tadqiqotlar MHXSni joriy etish orqali bank hisobotlarining taqqoslanuvchanligi, ishonchiligi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi kuchayishini tasdiqlaydi. O'zbekiston bank tizimida, xususan, tijorat banklarida MHXSni qo'llash jarayoni moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, raqamlashtirish va investorlar uchun yanada ochiq axborot maydonini yaratishga xizmat qilmoqda.



Nomoddiy aktivlar hisobi BHMS va MHXS talablarining qiyosiy tahlili hamda takomillashtirish yo'nalishlari mavzusida tadqiqot o'tkazgan U. Ro'zmatovanning ilmiy izlanishiga ko'ra ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nomoddiy aktivlar hisobi milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) bilan uyg'unlashtirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim talablaridan biridir. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan BHMS va IFRS o'rtasidagi farqlar, ayniqsa nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish, qadrsizlanishini aniqlash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari keng o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida amaldagi 7-son BHMS qoidalarini xalqaro standartlarga moslashtirish korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, investitsion jozibadorligi va xalqaro bozorlarga integratsiyasini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bois, BHMSni MHXS talablari asosida takomillashtirish nomoddiy aktivlar hisobini samarali tashkil etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.


Z. A. Pardayeva iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida nomoddiy aktivlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu holat, avvalo, raqamli texnologiyalar, intellektual mulk, innovatsion ishlanmalar, brendlar va boshqa nomoddiy resurslarning iqtisodiy qiymati oshib borayotgani bilan izohlanadi. Kuchayib borayotgan raqobat sharoitida korxonalar uchun patentlar, dasturiy ta'minot, savdo belgisi, litsenziyalar va boshqa nomoddiy aktivlarni samarali boshqarish, ularni to'g'ri baholash hamda buxgalteriya hisobida aniq aks ettirish muhim vazifaga aylanmoqda. Shu bilan birga, amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida nomoddiy aktivlar bo'yicha shakllantirilayotgan ma'lumotlar investorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilarning talablarini to'liq darajada qondira olmayapti. Xususan, milliy standartlarda nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va hisobotlarda aks ettirish bo'yicha ayrim uslubiy cheklavl mavjud. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar darajasidagi ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va shaffofligini pasaytiradi. Shu sababli, nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IAS 38 "Nomoddiy aktivlar" talablari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat hisob axborotining sifatini oshiradi, balki korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, investorlarni jalb etishi va moliyaviy boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada, nomoddiy aktivlar hisobining zamonaviy va ilg'or uslubiyotini joriy etish orqali korxonalarda moliyaviy hisobotlarning to'liqligi, muhimligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda nomoddiy aktivlarni hisobga olish va baholash masalalarini o'rganishda nazariy va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari ya'ni IFRS, xususan IAS 38mhamda milliy buxgalteriya hisobi standartlari ya'ni BHMS 7 asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va amaliy tadqiqot ishlari o'rganilib, ularning natijalari umumlashtirildi. Qiyosiy yondashuv orqali milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlanib, nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish hamda hisobotlarda aks ettirish jarayonlari tizimli ravishda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nomoddiy aktivlar — bu moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan, biroq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida uzoq muddat davomida foydalaniladigan va kelgusida iqtisodiy manfaat keltiradigan resurslardir. Ular korxonaning intellektual salohiyati, innovatsion imkoniyatlari va bozor qiymatini oshiruvchi muhim aktivlar qatoriga kiradi (1-rasm).



1-rasm. Nomoddiy aktivlar klassifikatsiyasi.



Nomoddiy aktivlarga patentlar, litsenziyalar, mualliflik huquqi, savdo belgisi, brend, dasturiy ta'minot, franchayz va gudvil kabi obyektlar kiradi. Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida nomoddiy aktivlar korxonalarning strategik rivojlanishi, raqobatbardoshligi hamda investitsion jozibadorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi (1-jadval).

1- jadval. Nomoddiy aktivlar bo'yicha BHMS 7 va IAS 38 standartlarinig qiyosiy tahlili.

7-son BHMS ("Nomoddiy aktivlar")	38-son BHXS (IAS 38 "Nomoddiy aktivlar")
1-bob. Umumiy qoidalar	1. Standartning maqsadi
Tartibga solish asoslari	2. Qo'llanish sohasi
Asosiy qoidalar	3. Ta'riflar
Qo'llash doirasi	Nomoddiy aktiv tushunchasi
Asosiy tushunchalar	Identifikatsiyalash
Tan olish mezonlari	Nazorat qilish
Identifikatsiya qilish	Tan olish va baholash
Kelgusi iqtisodiy naf	Alohida xarid qilish
Inventar obyekt sifatida hisobga olish	Biznes birlashuvi orgali xarid
Nomoddiy aktivlar tarkibi	Tadqiqot va ishlanmalar xarajati
2-bob. Nomoddiy aktivlarning kelib tushishi	Davlat grantlari orqali olish
Balansga qabul qilish	Aktivlarni ayirboshlash
3-bob. Dastlabki baholash	Ichki yaratilgan nomoddiy aktivlar va gudvill
Boshlang'ich qiymat bo'yicha tan olish	Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik bosqichlari
4-bob. Kapital qo'yilmalar	4. Xarajatlarni tan olish
5-bob. Qayta baholash	5. Tan olishdan keying baholash
6-bob. Xarajatlarni aks ettirish	Boshlang'ich qiymat modeli
7-bob. Amortizatsiya hisobi	Qayta baholash modeli
Amortizatsiya usullari	6. Foydali xizmat muddati
Foydali xizmat muddati	7. Aniq muddatli nomoddiy aktivlar
8-bob. Foydalanish huquqini berish hisobi	Amortizatsiya muddati va usuli
9-bob. Gudvill hisobi	Tugatish qiymati
10-bob. Chiqib ketish hisobi	Amortizatsiya usulini qayta ko'rib chiqish
Balansdan chiqarish	8. Noaniq muddatli nomoddiy aktivlar
Moliyaviy natijalarni aniqlash	9. Qadrsizlanish va qoplanish qiymati
11-bob. Inventarizatsiya	10. Foydalanishni tugatish va hisobdan chiqarish
Inventarizatsiya tartibi	11. Ma'lumotlarni yoritib berish
12-bob. Hisobotlarda aks ettirish	Umumiy qoidalar
Moliyaviy hisobot izohlari	12. O'tish qoidalar va kuchga kirish sanasi

Ushbu jadvalda nomoddiy aktivlar bo'yicha amaldagi 7-son BHMS hamda 38-son BHXS (IAS 38) o'rtasidagi asosiy o'xshash va farqli jihatlar qiyosiy tarzda keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, milliy standartda nomoddiy aktivlarni hisobga olish, amortizatsiya qilish, inventarizatsiya va hisobotlarda aks ettirish jarayonlari batafsil yoritilgan bo'lsa-da, xalqaro standartda asosiy e'tibor aktivlarni tan olish mezonlari, identifikatsiyalash, nazorat qilish, qadrsizlanishni aniqlash, foydali xizmat muddati hamda tan olishdan keyingi baholashga qaratilgan. Shuningdek, BHXSda nomoddiy aktivlarni alohida xarid qilish, biznes birlashuvi orqali olish, davlat grantlari asosida qabul qilish, ichki yaratilgan aktivlarni baholash va tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik bosqichlari ancha kengroq yoritilgan. BHMSda esa inventarizatsiya, foydalanish huquqini berish, gudvill hisobi va balansdan chiqarish kabi amaliy jihatlar alohida boblar asosida ko'rib chiqiladi. Mazkur taqqoslash shuni ko'rsatadiki, BHMSning tarkibiy tuzilmasi milliy iqtisodiyot talablariga mos ravishda shakllangan bo'lsa, BHXS xalqaro investorlar va global moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun yanada shaffof, taqqoslanuvchan va universal yondashuvni ta'minlaydi. Shu sababli, milliy standartlarni xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish nomoddiy aktivlar hisobi sifatini oshirish, moliyaviy axborotning ishonchligini kuchaytirish va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Quyidagi jadval nomoddiy aktivlar auditi davomida tekshiriladigan asosiy yo'nalishlar va ularning holatini hamda auditor xulosasini ko'rsatadi. Mavjudlik bo'yicha tekshiruvda hujjatlar to'liq va haqiqiy ekanligi aniqlangan, ya'ni aktivlar mavjudligi tasdiqlangan va bu holat ijobiy deb baholangan (2-rasm).

Tekshiruv yo'nalishi	Holat	Auditor xulosasi
 Mavjudlik	Hujjatlar to'liq va haqiqiy	 Ijobiy
 Baholash	BHMS va IFRS talablariga mos, ammo ayrim tafovutlar bor	 Shartli ijobiy
 Amortizatsiya	To'g'ri chiziqli metod qo'llanilgan	 Ijobiy
 Qadrsizlanish testi	Qisman rioya etilgan	 Shartli ijobiy
 Ichki nazorat	Tizim mavjud, lekin zaif jihatlar bor	 Takomillashtirish zarur

2-rasm. Nomoddiy aktivlar auditi yo'nalishlari

Baholash jarayonida hisob yuritish BHMS va IFRS talablariga mosligi ko'rilgan, lekin ayrim tafovutlar mavjudligi sababli bu holat to'liq ideal emas va shartli ijobiy xulosa berilgan. Amortizatsiya bo'yicha to'g'ri chiziqli metod qo'llanilgani aniqlangan, bu esa hisoblash usuli to'g'ri tanlanganini bildiradi va natija ijobiy deb baholangan. Qadrsizlanish testi qisman amalga oshirilgan, ya'ni to'liq tekshiruv qilinmagan. Shu sababli bu yo'nalish ham shartli ijobiy xulosa bilan yakunlangan. Ichki nazorat tizimi mavjud bo'lsa-da, unda zaif jihatlar borligi aniqlangan. Bu esa tizimni yaxshilash zarurligini bildiradi va auditor tomonidan "takomillashtirish zarur" degan xulosa berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda nomoddiy aktivlarning xalqaro va milliy buxgalteriya standartlari asosida hisobga olinishi, baholanishi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishining o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarda nomoddiy aktivlarni tan olish va baholash jarayoni ancha qat'iy mezonlarga asoslangan bo'lib, asosiy e'tibor ularning iqtisodiy foyda keltirishi, ishonchli baholanishi va nazorat qilinishiga qaratiladi. Milliy standartlarda esa hisobga olish jarayonlari nisbatan soddaroq va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, ayrim jihatlar xalqaro talablar bilan to'liq uyg'unlashmagan.

Raqamli iqtisodiyot davrida nomoddiy aktivlar — xususan, intellektual mulk, brend, patent va innovatsion dasturiy ta'minotlar — korxonalarning bozor qiymatini shakllantiruvchi va ularning barqaror o'sishini ta'minlovchi hal qiluvchi strategik resursga aylanmoqda. Bu jarayon biznes subyektlari uchun nafaqat yangi imkoniyatlar yaratadi, balki ularning ichki salohiyatini va innovatsion imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishga xizmat qiladi. Ushbu sohada milliy va xalqaro standartlarni o'zaro uyg'unlashtirish hamda hisob siyosatini takomillashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning xalqaro miqyosda tushunilishini va shaffofligini ta'minlash mumkin, bu esa o'z navbatida xorijiy investorlar ishonchini qozonishda muhim omil bo'ladi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobiga zamonaviy raqamli tizimlarni joriy etish ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligini yangi bosqichga olib chiqsa, baholash usullarining takomillashishi natijasida korxonaning real intellektual salohiyati moliyaviy hujjatlarda o'zining munosib aksini topadi.

Mutaxassislar malakasini oshirish va auditorlik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar esa sohada jahon andozalariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar korpusini shakllantirib, korxonalarning global bozordagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, nomoddiy aktivlar hisobini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish korxonaning barqaror rivojlanishi va kelajakdagi yutuqlarini kafolatlovchi muhim innovatsion qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'ktamova S. M. (2025). Sun'iy intellekt va dasturiy taminotlarni nomoddiy aktivlar sifatida hisobga olish masalalar. Modern education and development, 34(2), 43-48.
2. Uktamboyev A. M. (2026). O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilishning amaldagi holati va uni takomillashtirish. World Scientific Research Journal, 47(1), 45-54.
3. Rozmatova, U. Nomoddiy aktivlar hisobi: BHMS va MHXS talablarining qiyosiy tahlili hamda takomillashtirish yo'nalishlari. Economic Development and Analysis, 3(8), 119-127.



4. Pardayeva, Z. O 'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etish xususiyatlari. Green Economy and Development, 2(5), 664074.
5. Shirinov, U.A., & Mustafoyev, A. F. (2023). Xalqaro standartlar asosida nomoddiy aktivlar tan olish masalalari. Экономика и социум, (5-2 (108)), 374-379.
6. Arabdjanovna, T. O. (2025). Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish hisobi. Лучшие интеллектуальные исследования, 53(1), 3-7.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>